



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich

A.Avloniy nomidagi XTMO'IBITI

maqsadli tayanch doktoranti

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING IXTISOSLASHUV MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ixtisoslashuv, ishlab chiqarish jarayonida ixtisoslashuv, kelajak kadrlarini tayyorlashda ta'limning o'rni, ixtisoslashgan maktab tushunchasi, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan sinf va ta'lim muassasalarining maqsad va vazifalari, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ixtisoslashuvi uchun zarur bo'lgan talablar, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarlarning farqli xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashuv jarayonidagi yechimini kutayotgan muammolarga ham e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается специализация, специализация в производственном процессе, роль образования в подготовке будущих кадров, понятие специализированной школы, цели и задачи государственных профильных классов и учебных заведений с углубленным изучением отдельных предметов, специализации общего среднего образования требования к, отличительные черты специализированных школ и школ-интернатов, в которых углубленно изучаются отдельные предметы. Также акцентируется внимание на проблемах, которые необходимо решить в процессе специализации общеобразовательной средней школы.

Annotation. This article deals with specialization, specialization in the production process, the role of education in the training of future personnel, the concept of a specialized school, the goals and objectives of public specialized



classrooms and educational institutions with in-depth study of certain subjects, specialization of general secondary education the requirements for, the distinctive features of specialized schools and boarding schools in which certain subjects are studied in depth. It also focuses on the problems that need to be addressed in the specialization process of general secondary schools.

Tayanch iboralar., Mehnat bozori, kelajak kadrlari, o'quvchilarning individual qobiliyati, ixtisoslashuv, kasblarning ixtisoslashuvi, ixtisoslashgan maktablar, maktablarning ixtisoslashuv jarayonidagi muammolar.

Mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishi va ayrim kasblarga bo'lgan ehtiyojning kamayib borayotganligini kuzatish mumkin. Shu bilan bir qatorda kasblarning ham ixtisoslashuv jarayoni tezlashmoqda. Ish beruvchilar tomonidan ishchi-xizmatchilarning o'z sohasiga oid maxsus bilim va ko'nikmalari mavjudligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu holat sohalar bo'yicha kadrlar ixtisoslashuv jarayonining tabiiy ravishda tezlashishiga sabab bo'ladi. Bozor talablariga mos va sifatli kadrlarni tayyorlash maktabdan boshlanishi hammaga ma'lum. Shunday ekan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, kasblar haqida ma'lumotlar berish, fanlarga qiziqishni kasblar orqali orttirish metodikalaridan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Shuningdek, kelajak kadrlarini tayyorlashda o'quvchilarning individual qobiliyati, qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni kasbga yo'naltirish va ayrim fanlarni chuqur o'rganishlari uchun sharoit yaratilishi muhim omil hisoblanadi. Bunday sharoitni umumiy o'rta maktablarining ayrim fanlarni chuqur o'rgatishga ixtisoslashuvi hamda variativ o'quv rejalarni joriy qilish oqrali yaratish mumkin. Biz diqqatimizni umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashuv masalalariga qaratdik.

Avvalo, ixtisoslashuv so'ziga e'tibor qaratib, turli manbalarni o'rganganimizda bu so'z ko'p o'rinlarda iqtisodiy tushunchalar bilan birga qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Masalan, "mehnat jarayonidagi ixtisoslashuv", "ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish", "biznesda ixtisoslashuv" "mikroiqtisodiy ixtisoslashuv" va h. Ushbu tushunchalarga berilgan ayrim ta'riflarga to'xtalib, ixtisoslashuv tushunchasi haqidagi tasavvurlarimizni aniqlashtirib olsak. I.P.Yakovlevning ta'kidlashicha, "Mehnat jarayonidagi ixtisoslashuv – ishlab chiqarish xodimining texnologik tashkiloti doirasida bir xil mehnat operatsiyalarini bajarishi" [4]. O'zbekiston Milliy ensiklopediya esa "Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish – korxonalar, kompaniya yoki ularning biror tarkibiy qismining asosiy faoliyatini tor doiradagi mahsulot, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishiga yo'naltirish..." [2], - deb ma'lumot berilgan. Shuningdek, korxonalar ishini samarali tashkil etishda ya'ni, binolardan, asbob-uskunalardan, materiallardan beqam-ko'st foydalanishda, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini joriy etishda, takomillashgan maxsus mashina va asboblarni qo'llashda, mehnat unumdorligini oshirishda, mahsulot ishlab chiqarishda harajatlarni tejashda katta samara berish uchun ishlab chiqarishda ixtisoslashuvning muhimligi ta'kidlangan [2].

Ushbu fikrlardan tushunishimiz mumkinki, xodim faoliyat jarayonida korxonalar yoki tashkilotdagi to'g'ri kelgan ishni bajarib ketavermasdan, faqat o'zi tushungan, bilgan, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan aynan bitta vazifani bajaradi. Bu esa ish



sifati va samaradiligining oshishiga xizmat qiladi. Demak, kasblarning ixtisoslashuvi ta'limning ixtisoslashuviga sabab bo'lgan asosiy jarayondir. Ta'lim tizimidagi ixtisoslashuv haqida I.P.Yakovlev oliy ta'lim nuqtai nazaridan quyidagicha fikr bildirgan: "Ta'lim tizimidagi ixtisoslashuv (lotincha specialis – "maxsus, o'ziga xos") – bu mutaxassislik doirasidagi nisbatan tor faoliyat sohasini chuqur o'rganish bo'lib, muayyan ishlarni bajarishga mo'ljallangan mutaxassisning zaruriy malaka darajasini ta'minlaydi"[4]. Shunday ekan, ta'limning ixtisoslashuvi orqaligina ma'lum fan-texnika, kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozori va zamon talablariga mos kadrlarni tayyorlash imkoniyati vujudga kelishiga ishonch hosil qilish mumkin. Xuddi shu vaziyatdan kelib chiqib, bugungi kunda maktab ta'limida ham ixtisoslashuv jarayonini muhim deb bilamiz va ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari shular jumlasiga kiradi. Ixtisoslashtirilgan maktablar tushunchasiga xalqaro qidiruv tizimi "Wikipedia" da quyidagicha ta'rif berilgan: "Ixtisoslashtirilgan maktablar – bu maktabning ixtisosligini tashkil etuvchi ayrim fanlar kengaytirilgan o'rta ta'lim maktablari..." [5]. Ushbu ta'rifni aniqlashtiradigan bo'lsak, ixtisoslashtirilgan maktablar – ma'lum bir fan chuqur o'rgatiladigan, shu fan bo'yicha belgilangan standartlardan ham yuqoriroq bilim beriladigan hamda ushbu fan bo'yicha o'quvchilarda nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun barcha sharoitlarga ega bo'lgan maktablardir. Bunda ushbu maktablar uchun xos bo'lgan o'quv-reja dastur, o'quv-metodik materiallar, pedagog kadrlar salohiyati, moddiy-texnik baza, o'quvchilarni individual xususiyatiga qarab saralab olish mexanizmlari, o'qitish metodikalari belgilangan talab darajasida bo'lishi kerak. Xo'sh bunday talablar O'zbekiston sharoitidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida mavjudmi? Bu savolning javobi alohida tadqiqot ishi va keyingi tadqiqotlarimizda bu masalani o'rganishni maqsad qilganmiz. Biz ushbu tadqiqotimizda ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa maktablardan farqli jihatlarini o'rganishga harakat qildik.

Izlanishlarimiz natijasida maktablarning turli maqsadlarda ixtisoslashuviga guvoh bo'ldik. Masalan, tarbiyasi og'ir, sog'lig'ida muammosi bor, aqliy zaif va shu kabi bolalarga ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan maktablar ham mavjud. Ammo ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar ushbu maktablardan farq qiladi va bu maktablarda aynan bir fanga qiziqishi, shu fanni o'rganishga qobilayati yuqori bo'lgan bolalar o'qitiladi. Bunday maktablar o'quvchilardagi qobilayat va iste'dodni yanada rivojlantirish, shu yo'nalishda salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashga hamda mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan maktablar tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Sovet Ittifoqi davrida ham bunday maktablar mavjud bo'lgan. Fikrimizning tasdig'i sifatida amerikalik tadqiqotchi Mark Saulning Sovet Ittifoqidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim haqidagi ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. U ayniqsa matematika ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Sovet Ittifoqidagi ixtisoslashtirilgan maktabning (rus. Школа с уклоном, Shkola s uklonom) uchta tipik turi mavjud edi: fizika-matematika maktablari, fizika-matematika bo'yicha kuchaytirilgan ta'lim, sport maktabi va chet

tilini chuqur o'rganadigan maktablar. Bu an'ana bir qator postsovet davlatlari, xususan, Rossiya, Qirg'iziston, Belarus va Ukrainada davom etdi va ko'plab maktablar litseyga aylantirildi [5]. Bu an'ana O'zbekistonda ham davom etganligini aytib o'tish kerak. Musiqa ta'limiga ega maktablar ham bo'lgan, lekin ular "o'rta musiqa maktab" deb nomlangan. O'rta musiqa maktablarida 1-sinfdan boshlab musiqa ta'limi asosiy maqsad qilib qo'yilgan (ya'ni, ularni kasb-hunar maktablari deb tasniflash mumkin), majburiy umumiy o'rta ta'lim biroz qisqartirilgan shaklda berilgan. (Izoh: Sovet Ittifoqi terminologiyasida "o'rta maktab" boshlang'ich ta'limni ham o'z ichiga olgan, ya'ni 1-10 sinflarni o'z ichiga olgan.) Chet tili maktablari 1-sinfdan boshlab ma'lum bir chet tilini o'rganishni boshlagan (oddiy sovet maktablarida chet tili 5-sinfdan boshlab kiritilgan) va ba'zi sinflarda (odatda 5-sinf) ba'zi fanlar shu tilda o'qitila boshlandi. Sovet Ittifoqining oxirgi davrlarida ingliz, nemis, fransuz va ispan tillariga ixtisoslashgan til maktablarining ichida ingliz maktablari eng keng tarqalgan va ispan tiliga eng kam e'tibor berilgan [5].

Mark Saulning fikriga ko'ra, Sovet Ittifoqida fizika va matematika bo'yicha ta'lim kengaytirilgan. Odatda, bu takomillashtirish yuqori sinflarda, 8 yoki 9-sinflarda boshlangan. Shunisi e'tiborga loyiqki, fizika maktablarida yahudiy o'quvchilarining foizi juda yuqori edi. Ba'zi nufuzli universitetlar va ilmiy muassasalardan farqli o'laroq, ixtisoslashtirilgan maktablarda yahudiylar uchun norasmiy kvotalar yo'q edi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarni individual xususiyatlariga qarab saralab olish mexanizmlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan va ushbu maktablarga qabul qilingan o'quvchilar qiziqishlaridan qat'iy nazar belgilangan fanni qattiqqo'llik bilan chuqur o'rganishga majbur bo'lishgan [3]. Ixtisoslashgan maktablarga qabul jarayonidagi, o'quv-reja dastur va o'qitish metodikalaridagi va boshqa kamchiliklar Sovet ittifoqi tugagandan keyin postsovet davlatlari qatori O'zbekistonda ham saqlanib qoldi. Ammo keyinchalik mustaqil bo'lgan davlatlar bu kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha bir qancha islohatlar o'tkazishdi. Jumladan, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi 173-son qarori asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ixtisoslashuv masalalari bo'yicha tartib-qoidalar belgilab berildi. Ushbu qarorga ko'ra, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan quyidagi turlari belgilandi:

ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar;

ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar.

Bunda ba'zi maktablar to'lig'icha, ba'zilarining esa ayrim sinflari ixtisoslashtirilishi nazarda tutilgan. Bunday turdagi maktab va sinflarning asosiy vazifasi etib quyidagilar belgilangan:

o'quvchilarning davlat ta'lim standartlari talablaridan oshadigan chuqur ta'lim tayyorgarligini ta'minlash;

o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish;

har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

professional ta'lim dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik o'zlashtirish uchun asos yaratish;

o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

o'quvchilarning iqtidori va kamol topishi dinamikasining psixologik-pedagogik diagnostikasini amalga oshirish;

ta'limning uzviyligi va uzluksizligi asosida intensiv intellektual rivojlantirishni, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirilgan o'qitishni ta'minlash;

asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ular integratsiyasini amalga oshirish, loyihadagi o'qitishga o'tgan holda ta'lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish;

ta'lim jarayoniga innovatsiya, pedagogika va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ixtisoslashuv jaroyoni quyidagi tartibda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan:

ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar 5-sinfadan, maktab-internatlar 7-sinfadan boshlab tashkil etilishi;

ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq o'qish va yashash uchun zarur shart-sharoitlar taqdim etilgan holda o'quvchilarning barcha jalb etilgan kontingentini iqtidor va iste'dodini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks ta'lim-tarbiya jarayoni bilan qamrab olish maqsadida tashkil etilishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tegishli fanlar bo'yicha o'tkazilgan test sinovi natijalari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish mezoni hisoblanishi;

Prezident maktablariga saralash tanlovlarida qatnashib, tanlovdan o'ta olmay, ajratilgan qabul kvotasidan keyingi eng yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar orasidan ballar ketma-ketligi asosida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablarining 5-sinfiga va maktab-internatlarining 7-sinfiga qo'shimcha qabul kvotasi doirasida o'quvchilar saralash test sinovlari o'tkazilmasdan qabul qilinishi [1].

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashuv masalalarini ya'ni, ularning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun belgilangan tartib-qoidalarni aniqlashtirib oldik. Keyingi vazifamiz ushbu umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashuv mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqot ishlarini davom ettirish. Chunki kuzatishlarimiz jarayonida maktablarning ixtisoslashuv jarayoni, ta'lim sifati, samaradorligi, o'quv-reja dasturlarni ishlab chiqishda, qo'shimcha o'quv metodik-materillarni tayyorlashda, o'quv jarayonida o'quvchilarni individual rivojlantirish bilan bo'g'liq ko'pgina muammolarning mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy



dastur” da ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ma’lim maktablari faoliyatini takomillashtirish vazifasi belgilab qo‘yilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamoqchimizki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslashuv mexanizmlarini zamon talablariga mos tarzda takomillashtirmas ekanmiz, o‘z kasbining yetuk bilimdoni bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda muammolarga duch kelaveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 173-son qarori, T.:2008
2. [O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi](#). Birinchi jild. T.: 2000
3. Saul M. Kerosinka: An Episode in the History of Soviet Mathematics. Notices of the AMS, 1999
4. Яковлев И. П. Интеграционные процессы в высшей школе. Л., 1980
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Specialized_school